Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORPORATIV MADANIYATNING ZAMONAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	1455
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV RESURSLARINI SAMARALI TAQSIMLASHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1463
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
FORECASTING THE EFFICIENCY OF SOLID WASTE RECYCLING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	1467
Axmedov Sheramat Umurxojayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1472
Toxirova Gavxaroy Tolibjon qizi	
PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE INSTITUTIONAL TRANSFORMATION OF ACCOUNTING AND AUDITING SYSTEMS IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1477
Jumanazarov Ruzimurod, Rabbimov Elbek	
TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	1481
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
XORAZM VILOYATIDA SUV RESURSLARI TANQISLIGI VA TUPROQ DEGRADATSIYASINING MINTAQANING EKOLOGIK-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI.....	1486
Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHİYATINING HUDUDİY TAFOVUTLARI TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA (2021–2025)	1491
Yaqubov San'at Shonazarovich	
KICHIK VA O'RTA AGROBIZNESLARNING EKSPORT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI	1501
Muxitdinov Shuxrat Ziyaviddinovich	
WTO ACCESSION AND ECONOMIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM VIETNAM AND KAZAKHSTAN	1507
J.Ya. Nurillaev	
MILLIY IQTISODIYOTDA TASHQI EKOLOGIK ZARARLARNI ICHKILASHTIRISH MEXANIZMLARI	1513
Sodikov Zokir Rustamovich	
KRIPTOBIRJA AXBOROT TIZIMIDA SERVER YUKLAMASINI SAMARALI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1519
Shoaxmedova Nozima Xayrullayevna	
TEJAMKORLIK VA INNOVATSIYA: IQTISODIY O'SISHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	1524
Allaberganov Zakir G'ayibovich	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA MAHALLIY BUDJET VA MOLIYAVIY MANBALARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MEXANIZMLARI	1530
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTON O'RTA BIZNES KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR, SABABLAR VA KOMPLEKS YECHIMLAR.....	1538
Kutimov Baxtiyor, Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	
FISKAL SIYOSAT VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: DAVLAT QARZI, INVESTITSİYALAR VA SOLIQ YUKLAMASI TA'SIRINING EKONOMETRIK BAHOLASHI.....	1541
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YAYLOV CHORVACHILIGIDA HUDUDIY IXTISOSLASHUVNI SHAKLLANTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI	1550
Xalmirzaev Axmadjan Axunovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA "YASHIL" MENEJMENTNI JORIY ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1555
Abdullaev Nokisbay Abdullaevich	



YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA YASHIL SOLIQLARNING AHAMIYATI: IQTISODIY TARAQQIYOT SARI YASHIL QADAM.....	1559
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizayov Murodbek Madiyarovich	
METHODOLOGICAL MODELS FOR THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN REGIONS	1566
Majidova Sanobar Daminovna	
UZBEKISTAN UTILIZES DIGITAL PLATFORMS TO PROMOTE SUSTAINABLE GROWTH IN TOURISM: A COMPARATIVE STUDY BASED ON THE BELT AND ROAD INITIATIVE.....	1573
Li Yang	
SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT JARAYONLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	1581
Tuyinov Botir Ismatovich	
TRANSFORMATION OF THE VOCATIONAL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN: CULTURAL AND INSTITUTIONAL APPROACHES.....	1588
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
GULCHILIK TARMOG'IDA OILAVIY KASBIY SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH: TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA	1594
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
RAQAMLASHTIRISH BOSHQARUV INFRATUZILMASI SIFATIDA: O'ZBEKISTONDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA KORPORATIV BOSHQARUV	1599
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
IJRO HUIJATLARINI MAJBURIY IJRO ETISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1602
Matmuratova Nasiba Azatovna	
IJRO HUIJATLARI TALABLARINI BAJARISHDAN BO'YIN TOVLAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI SODDALASHTIRISH MASALALARI	1607
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
AHOLINI IJTIMOİY TA'MINOT TIZIMINING TAMOIYILLARI VA UNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI	1611
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
BEYOND GREEN: THE ECONOMIC IMPACT OF ELECTRIC URBAN TRANSPORT INFRASTRUCTURE	1615
Khannarov Komiljon Karimovich, Shukurillaev Nizomiddin Akmaljon ugli	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLARNING QAYTMASLIGI (NPL) VA LIKVIDLIK: PUL OQIMLARIDAGI UZILISHLAR TAHLILI	1621
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
KREATIV SANOAT VA TURIZM INTEGRATSIYASI: ZAMONAVIY SHAHARLAR IQTISODIY MODELIDAGI YANGI YONDASHUV	1628
Raxmonova Nilufar Yorqinovna	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	1632
M.O.Yuldoshova	
ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA SANOAT SEKTORIGA "YASHIL" INVESTITSİYALARNI JALB ETISH VA BOSHQARISH YO'LLARI.....	1636
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ВИРТУАЛЬНЫХ АКТИВОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ СИСТЕМУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1644
Хатамов Азизжон Абдумажитович, Абдураупов Рустам Рамзович	
AVTOMOBIL SANOATIDA BREND STRATEGIYASINI RAQAMLI MARKETING VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH.....	1650
Boboyev L. Kadrxo'ja Djuraxodjayevich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA BOSHQARUV TAHLILINING ZARURATI.....	1657
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI	1661
Nosirov Jasur Tursunpulotovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL ENERGIYA SIYOSATINING IQTISODIY SAMARADORLIGI (2015-2025-YILLAR TAHLILI)	1667
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
SUG'URTA XIZMATLARI HAJMINI EKONOMETRIK BAHOLASH	1671
Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA TURIZMNING MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA STATISTIK MONITORING TIZIMI	1675
Q.A. Musaxanov	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1679
Ulashev Xubbim	
BANKLARDA YASHIL DEPOZITLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT MOLIYA SIYOSATIDAGI O'RNI	1684
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI	1695
Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV VA CHAKANA BANK XIZMATLARINI ASOSIY MOLIYAVIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI	1707
Saipnazarova Mohinur Utkir qizi	
O'ZBEKISTONGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH BILAN BOG'LIQ MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	1712
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH	1720
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
СПЕЦИФИКА И АНАЛИЗ ПРЕДПОЧТЕНИЙ РОССИЙСКИХ ТУРИСТОВ ПРИ ПОСЕЩЕНИИ УЗБЕКИСТАНА	1725
Усманова Дилъфруз Каршиевна	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA HUQUQIY-INSTITUTIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1733
Sharapov Azamat Masharipovich	
XORIY TAJRIBASIDA BANKLARARO RAQOBAT VA BANK TIZIMI BARQARORLIGI O'RTASIDAGI NAZARIY MUNOSABATLAR	1739
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
LOGISTIKA TIZIMLARI UCHUN REAL VAQT MONITORING TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	1745
Kucharova Shaxlo Sobir qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1749
Xusanova Malohat Mingnorovna	
"QUYUV MEXANIKA ZAVODI" AJDA ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1755
Suyunova Zuxra Bahodir qizi	
MAKROMINTAQAVIY DARAJADA TRANSPORT EFFEKTLARINI BAHOLASH USULLARI VA VOSITALARINI RIVOJLANTIRISH	1761
Omonova Sug'diyona Mamadavidovna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASINI ASOSIDA G'AZNACHILIK XIZMATI QO'MITASI VA UNING BO'LINMALARIGA DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH	1766
Guzal Navruzova	
MILLIY VALYUTA KURSI BARQARORLIGINING MAKROIQTISODIY OMILLARI: INFLYATSIYA, FOIZ STAVKASI VA TO'LOV BALANSI NAZARIY TAHLILI	1773
G'afurov Olimjon G'olib o'g'li	



AVTOMOBIL TRANSPORTI KORXONALARIDA AUDIT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA RISKKA ASOSLANGAN YONDASHUV	1778
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
MAKROMINTAQAVIY DARAJADA TRANSPORT EFFEKTLARINI BAHOLASH USULLARI VA VOSITALARINI RIVOJLANTIRISH	1782
Omonova Sug'diyona Mamadavidovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNI XALQARO STANDARTLAR (MHXS) ASOSIDA YURITISH IMKONIYATLARI	1787
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Xalmatova Sevara Rahimovna	



UDK: 657.1:334.724(575.1)

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNI XALQARO STANDARTLAR (MHXS) ASOSIDA YURITISH IMKONIYATLARI

Suyunov Yorqin Bekmurodovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriya” kafedrası PhD dotsenti

E-mail: yosuyunov78@gmail.com

ORCID: 0009-0008-9928-0220

Xalmatova Sevara Rahimovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Umumta’lim fakulteti, 4-kurs BH2201K01-guruh talabasi

E-mail: halmatovasevara184@gmail.com

ORCID: 0009-0003-8390-096X

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS/IFRS) asosida yuritish masalalari tahlil qilingan. Mamlakat iqtisodiyotida korporativ sektorning rivojlanishi va xorijiy investitsiyalarni jalb etish zarurati asosida MHXSni joriy etishning dolzarbligi asoslab berilgan. Qiyosiy tahlil metodologiyasi asosida milliy va xalqaro standartlar o‘rtasidagi farqlar, shuningdek joriy etish jarayonidagi tizimli masalalar aniqlangan. MHXSning asosiy tamoyillari, moliyaviy hisobot elementlari va ularning aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidagi ahamiyati; MHXSni tatbiq etish jarayonida yuzaga keladigan amaliy jihatlar; qonunchilik asoslari bilan xalqaro standartlar o‘rtasidagi tafovutlar; moliyaviy hisobot sifatini oshirish va investitsion muhitni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ko‘rib chiqilgan. Statistik ma’lumotlar asosida tuzilgan jadvallar yordamida dinamik o‘zgarishlar baholangan hamda MHXSni kengroq tatbiq etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: MHXS, IFRS, aksiyadorlik jamiyati, moliyaviy hisobot, korporativ boshqaruv, shaffoflik, investitsiya muhiti.

Abstract: This article analyzes the issues of preparing financial statements in joint-stock companies of the Republic of Uzbekistan in accordance with the International Financial Reporting Standards (IFRS). The relevance of IFRS implementation is substantiated based on the development of the corporate sector and the need to attract foreign investment. Using a comparative analysis methodology, the differences between national and international standards, as well as key aspects of the implementation process, are identified. The fundamentals of IFRS, the elements of financial reporting, and their importance for joint-stock companies are examined; practical aspects of IFRS adoption; differences between the legal framework and international standards; and recommendations for improving the quality of financial reporting and enhancing the investment environment are presented. Based on statistical data, the dynamics are assessed, and practical recommendations for expanding the application of IFRS are developed.

Key words: IFRS, joint-stock company, financial reporting, corporate governance, transparency, investment environment.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы ведения финансовой отчетности в акционерных обществах Республики Узбекистан на основе Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО/IFRS). Обоснована актуальность внедрения МСФО с учетом развития корпоративного сектора экономики страны и необходимости привлечения иностранных инвестиций. На основе методологии сравнительного анализа выявлены различия между национальными и международными стандартами, а также определены системные аспекты процесса внедрения. Рассмотрены основы МСФО, элементы финансовой отчетности и их значение в деятельности акционерных обществ; практические аспекты внедрения МСФО; различия между законодательной базой и международными стандартами; предложены рекомендации по повышению качества финансовой отчетности и развитию инвестиционного климата. С использованием таблиц, составленных на основе статистических данных, оценена динамика показателей и разработаны практические предложения по расширению применения МСФО.

Ключевые слова: МСФО, IFRS, акционерное общество, финансовая отчетность, корпоративное управление, прозрачность, инвестиционный климат.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari mamlakat iqtisodiy tizimida muhim o'rin egallaydi. Ularning faoliyati nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuv nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun moliyaviy hisobotning yuqori sifatli va ishonchli shaklda yuritilishi zarur. Moliyaviy hisobot korporativ boshqaruvning asosiy elementi sifatida investitsion qarorlar qabul qilish, moliyaviy resurslarni taqsimlash hamda kompaniya rivojlanishini monitoring qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida yuritish nafaqat amaliy, balki ilmiy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligida global moliyaviy integratsiya jarayonlari jadallashib, xalqaro kapital bozorlarida ishtirok etayotgan kompaniyalar uchun yagona, shaffof va qiyosiy moliyaviy axborot tizimiga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortdi. Shu asosda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS yoki inglizcha IFRS — International Financial Reporting Standards) 140 dan ortiq mamlakat tomonidan qabul qilingan universal tizimga aylandi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS/IFRS) aksiyadorlik jamiyatlariga moliyaviy ma'lumotlarni yagona va xalqaro darajada tan olingan shaklda taqdim etish imkonini beradi. Bu esa nafaqat mahalliy, balki xorijiy investorlar uchun ham kompaniyaning moliyaviy holatini to'liq va tushunarli tarzda baholash imkonini yaratadi. O'zbekistonda iqtisodiy liberallashtirish jarayonlari va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi doirasida MHXSni tatbiq etishning ahamiyati ortib bormoqda. Standartlar asosida moliyaviy hisobot yuritish orqali kompaniyalar o'z faoliyati haqida aniq va shaffof ma'lumotlar taqdim etadi, bu esa investorlar ishonchini mustahkamlash hamda moliyaviy resurslarni samarali boshqarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti ham 2016-yildan boshlab amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida izchil rivojlanib bormoqda. 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi moliyaviy hisobot tizimini xalqaro normalarga moslashtirish zarurligini belgilab berdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish va MHXSga o'tish jarayonini jadallashtirish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy institutsional bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sektor investitsiyalarni jalb etish, xususiylashtirish jarayonlarini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ko'plab aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlar hali ham milliy BHMS (Buxgalteriya hisobi milliy standartlari) asosida yuritilmoqda, bu esa xalqaro darajada taqqoslash imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklaydi.

Shuningdek, MHXS asosida moliyaviy hisobot yuritish aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Globallashtirish moliya muhitida kompaniyalar nafaqat ichki, balki xalqaro bozorlarda ham faoliyat yuritadi. Xalqaro standartlarga muvofiq hisobot yuritish kompaniyani xorijiy bozorlar va moliya institutlari uchun yanada jozibador qiladi hamda hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, MHXS moliyaviy ma'lumotlarni aniq va tizimli tarzda taqdim etish orqali strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtiradi va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Biroq, O'zbekiston sharoitida MHXSni tatbiq etish jarayoni ayrim tashkiliy va amaliy masalalarni hal etishni talab etadi. Jumladan, moliya va buxgalteriya sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularning bilim darajasini oshirish zarur. Ayrim kompaniyalarda MHXS asosida hisobot tuzish uchun zarur tajriba va ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmagan. Shu bois, professional treninglar va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalari va buxgalteriya dasturlarini rivojlantirish ham muhim yo'nalishlardan biridir. MHXSga muvofiq hisobot yuritish ko'pincha avtomatlashtirilgan tizimlarni talab qiladi, bu esa ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari uchun qo'shimcha resurslarni talab etishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, tegishli qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida MHXSni joriy etish iqtisodiy rivojlanish, huquqiy takomillashuv va institutsional modernizatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi mavjud adabiyotlar tahlili, statistik ma'lumotlar va qiyosiy metod asosida O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida MHXSni tatbiq etish holatini baholash, asosiy omillarni aniqlash hamda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va ularning rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda tatbiqi masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Nobes va Parker (2016) o'zlarining "Comparative International Accounting" nomli fundamental asarida MHXSning rivojlanayotgan mamlakatlarda joriy etilish



jarayonini tarixiy-qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilgan. Mualliflar ta'kidlashicha, IFRSni rasmiy qabul qilish bilan uni amaliyotda samarali qo'llash o'rtasida sezilarli farq mavjud bo'lib, bu asosan institutsional infratuzilma, mutaxassislar tayyorlash sifati va huquqiy muhitga bog'liq. Ularning tadqiqotlari turli mamlakatlar kesimida o'tkazilib, aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotining shaffoflik darajasi MHXSga o'tilgandan so'ng sezilarli oshganini ko'rsatadi.

Nguyen (2023) Vyetnam misolida 350 ta korxona ishtirokida o'tkazilgan so'rov tadqiqotida miqdoriy va sifat metodlarini uyg'unlashtirib, MHXSni ixtiyoriy qabul qilishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlagan hamda muvaffaqiyatli joriy etish uchun amaliy yondashuvlar taklif etgan. Tadqiqot natijalari rivojlanayotgan iqtisodiyotlar tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Owusu va boshqalar (2022) tomonidan 78 ta rivojlanayotgan mamlakatda 1996–2013-yillar davomida panel ma'lumotlar asosida olib borilgan tadqiqotda MHXSni qabul qilgan mamlakatlar iqtisodiy o'sish sur'atlari jihatidan yuqori natijalarga erishgani aniqlangan. Shuningdek, samarali institutlar MHXS va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiruvchi omil sifatida muhim rol o'ynashi asoslab berilgan. Bu xulosa O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, MHXSni samarali joriy etish uchun mustahkam huquqiy va institutsional muhit zarurligini ko'rsatadi.

Generalova va boshqalar (2024) Rossiyada MHXS tatbiqining 30 yillik tarixini qamrab olgan fundamental tarixiy tadqiqot olib borgan. Mualliflar postsovet makoni uchun xos bo'lgan "nominal muvofiqlik" muammosini, ya'ni standartlarni rasmiy qabul qilish bilan ularni amaliyotda samarali qo'llash o'rtasidagi tafovutni tahlil qilib, O'zbekiston kabi MDH mamlakatlari uchun muhim metodologik xulosalarni umumlashtirgan.

Mamadiyorov (2025) o'z tadqiqotida O'zbekiston korxonalarida MHXS tatbiqining moliyaviy shaffoflik va investitsiyalarni jalb etishga ijobiy ta'sirini, shu bilan birga ayrim moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasida o'zgarishlar yuzaga kelishini ekonometrik regressiya modeli asosida tahlil qilgan. Muallif MHXSga o'tish jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Toshmatov (2021) "O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv" monografiyasida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy shaffoflik masalalarini o'rganib, MHXSga o'tishni korporativ boshqaruvni takomillashtirishning muhim omili sifatida asoslaydi. 2018–2020-yillar ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'rganilgan aksiyadorlik jamiyatlarining 23 foizi MHXS talablariga qisman rioya qilgan. Muallif MHXSni joriy etishda nafaqat normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, balki davlat va biznes hamkorligida maxsus dasturlarni ishlab chiqish muhimligini ta'kidlaydi.

Mirzayev (2023) "O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida moliyaviy hisobot islohotlari" mavzusidagi dissertatsiyasida 2017–2023-yillardagi islohotlar jarayonini kompleks tahlil qiladi. Tadqiqotchi tijorat banklarida MHXSni majburiy joriy etish tajribasini muhim bosqich sifatida baholab, keyingi bosqichda ushbu yondashuvni aksiyadorlik jamiyatlariga kengaytirish bo'yicha asosli takliflar beradi. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, MHXSga to'liq o'tish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushini sezilarli darajada oshirish imkonini yaratadi.

Abduganiyeva (2025) maqolasida O'zbekistonda MHXSni joriy etishning asosiy bosqichlari, xususan, moliyaviy hisobot shaffofligini oshirish va investitsion muhitni rivojlantirishdagi ijobiy jihatlari yoritilgan. Muallif MHXSni samarali tatbiq etish va xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS/IFRS) asosida yuritishning ahamiyati va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida hujjatlarni o'rganish, analitik tahlil, empirik so'rov va intervyu, shuningdek, statistik hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Hujjatlarni o'rganish orqali O'zbekiston qonunchiligi va normativ-huquqiy bazasi tahlil qilindi. Analitik metod yordamida milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi farqlar aniqlanib, MHXSni tatbiq etish imkoniyatlari va cheklovlari baholandi.

Empirik metodlar, jumladan, so'rovnomalar va intervyular orqali moliyaviy xodimlarning amaliy tajribasi o'rganildi. Statistik va qiyosiy tahlil usullari yordamida moliyaviy ko'rsatkichlarning xalqaro standartlarga mosligi raqamli jihatdan baholandi.

Shu tariqa, tanlangan metodologiya MHXSni tatbiq etishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash, mavjud masalalarni tahlil qilish hamda ularni hal etish bo'yicha asosli tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

MHXSni tatbiq etish aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi globallashtirilgan moliya muhitida kompaniyalar nafaqat mahalliy, balki xalqaro bozorlarda ham faoliyat yuritadi. Standartlarga muvofiq hisobot yuritish kompaniyani xorijiy bozorlar va moliya institutlari uchun yanada jozibador



qiladi hamda ular bilan hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, MHXS moliyaviy resurslarni boshqarishda strategik qarorlar qabul qilish sifatini oshiradi, korporativ boshqaruvni takomillashtiradi va kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida MHXSni tatbiq etish jarayoni ayrim tashkiliy va amaliy masalalarni hal etishni talab etadi. Avvalo, malakali buxgalterlar va moliya mutaxassislarini tayyorlash hamda ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ko'plab aksiyadorlik jamiyatlarida MHXSga mos hisobot tayyorlash uchun zarur tajriba yetarli darajada shakllanmagan. Shu sababli, kadrlar malakasini oshirish va professional treninglar tashkil etish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, kompaniyalarda zamonaviy axborot tizimlari va buxgalteriya dasturlarini rivojlantirish zarurati mavjud. MHXSga mos hisobot yuritish ko'pincha qo'shimcha texnik infratuzilma va moliyaviy resurslarni talab etadi. Shu bois, ushbu jarayonni bosqichma-bosqich takomillashtirish va raqamli yechimlarni joriy etish muhim hisoblanadi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va MHXS talablarini uyg'unlashtirish dolzarb yo'nalishlardan biridir. Milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish ayrim hollarda hisobotni turli formatlarda yuritishni talab qilishi mumkin. Shu sababli, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, MHXSga mos mexanizmlarni ishlab chiqish va aksiyadorlik jamiyatlarini qo'llab-quvvatlash muhim vazifa hisoblanadi.

Investitsion muhitni rivojlantirish ham muhim jihatlardan biridir. MHXS asosida moliyaviy hisobot yuritish aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining shaffofligi va ishonchligini oshiradi. Bu esa mahalliy va xorijiy investorlar uchun kompaniyaning moliyaviy holatini aniq baholash imkonini beradi hamda investitsiyalarni jalb etish salohiyatini kuchaytiradi. Xalqaro standartlarga muvofiq hisobot yuritish korporativ boshqaruvni rivojlantiradi, strategik qarorlar qabul qilish jarayonini optimallashtiradi va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Shu asosda, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni MHXS asosida yuritish dolzarbligi ikki asosiy omilda namoyon bo'ladi: birinchidan, kompaniyalar faoliyatining shaffofligi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash; ikkinchidan, mamlakatning xalqaro moliya maydonidagi raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligini oshirish. Ushbu jarayon nafaqat amaliy iqtisodiy ahamiyatga, balki ilmiy-tadqiqot nuqtai nazaridan ham muhim bo'lib, moliyaviy boshqaruv, investitsiya siyosati va korporativ strategiyalarni yanada takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Umuman olganda, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida yuritish korporativ boshqaruv va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, investitsion muhitni rivojlantirish hamda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Standartlarni samarali joriy etish esa malakali kadrlar tayyorlash, zamonaviy axborot tizimlarini rivojlantirish, qonunchilikni takomillashtirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirishga bog'liqdir.

Quyidagi 1-jadvalda O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarida MHXS tatbiqining 2019–2024-yillar davomidagi dinamikasi, jumladan jami aksiyadorlik jamiyatlari soni, MHXS asosida hisobot tuzayotganlar ulushi va sertifikatlangan auditorlar soni keltiriladi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari va MHXS/IFRS tatbiqining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
IFRS asosida to'liq hisobot tayyorlagan AJ banklar soni	2	4	7	10	15
Transformatsiya bosqichidagi banklar soni	2	4	7	10	15
*IFRS bo'yicha hisobot shakllangan daraja (%)	30%	45%	70%	85%	95%
Transformatsiyaga sarflangan o'rtacha xarajat (bank, mln so'm)	10 400	11 300	20 800	36 500	45 000
IFRS bo'yicha malaka oshirish darajasi	35%	50%	65%	85%	88%
IFRS bo'yicha xalqaro auditorlik xulosasi olayotgan AJ banklar soni	1	2	5	6	8
OBHS bilan solishtirganda aktivlar bahosi (%)*	–	–	–	+8–11%	+10–12%
Xalqaro standartlarga mos AJlar ulushi	3%	5%	8%	12%	18–20%

* Bu ko'rsatkichlar banklar misolida mavjud bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlarida ham shunga o'xshash tendensiya kuzatilmoqda.

Manba: muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida shakllantirildi

O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari, xususan bank sektori misolida Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS/IFRS)ni tatbiq etish 2020-yildan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. 2020-yilda atigi



ikki bank to'liq IFRS asosida moliyaviy hisobot tuzgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshgan. Jumladan, 2021-yilda bunday banklar soni 4 taga, 2022-yilda 7 taga, 2023-yilda 10 taga yetgan. 2024-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich 15 tadan oshgan. Bu tendensiya xalqaro moliyaviy standartlar tatbiqining izchil kengayib borayotganini va banklar faoliyatida shaffoflikni oshirishga bo'lgan intilishni aks ettiradi.

IFRS asosida hisobot tuzish darajasi ham yildan-yilga ortib bormoqda. 2020-yilda bu ko'rsatkich 30 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 45 foizga, 2022-yilda 70 foizga, 2023-yilda esa 85 foizga yetgan. 2024-yil yakuniga kelib ushbu ko'rsatkich 95 foizga yaqinlashgan. Bu esa banklar tomonidan IFRS talablarini qabul qilish va ularni amaliyotga joriy etish darajasi izchil oshib borayotganini ko'rsatadi.

Transformatsiya jarayonlariga yo'naltirilgan xarajatlar ham yillar davomida oshib borgan. 2020-yilda banklar o'rtacha 10 400 mln so'm miqdorida mablag' sarflagan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 20 800 mln so'mga yetgan. 2023-yilda xarajatlar 36 500 mln so'mni tashkil etgan, 2024-yilda esa 45 000 mln so'm darajasiga yetgan. Ushbu xarajatlar asosan IFRS bo'yicha konsalting xizmatlari, malaka oshirish, axborot tizimlarini modernizatsiya qilish va hisobot jarayonlarini integratsiyalashga yo'naltirilgan.

IFRS bo'yicha kadrlar malakasini oshirish darajasi ham izchil rivojlanmoqda. 2020-yilda bank xodimlarining 35 foizi IFRS bo'yicha treningdan o'tgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 50 foizga, 2022-yilda 65 foizga, 2023-yilda esa 85 foizga yetgan. 2024-yil yakuniga kelib malaka oshirish darajasi 90 foizdan oshgan. Bu esa malakali mutaxassislar salohiyatining ortib borayotganini va hisobot sifatining yaxshilanayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, xalqaro auditorlik xulosasini olayotgan banklar soni ham ortib bormoqda. 2020-yilda bunday banklar soni 1 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 2 taga, 2022-yilda 5 taga, 2023-yilda 6 taga yetgan. 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 8 taga yetgan. Bu holat moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablarga mosligi ortib borayotganini tasdiqlaydi.

IFRS tatbiqi natijasida banklar aktivlarini baholash darajasi ham takomillashgan. Milliy hisob standartlari bilan solishtirganda, IFRS asosida hisoblangan aktivlar 2023-yilda o'rtacha 8–11 foizga yuqoriroq baholangan. Bu esa moliyaviy resurslarni yanada aniq aks ettirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalqaro standartlarga mos aksiyadorlik jamiyatlari ulushi ham yildan-yilga oshib bormoqda. 2020-yilda bu ko'rsatkich 3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 5 foizga, 2022-yilda 8 foizga, 2023-yilda 12 foizga yetgan. 2024-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich 18–20 foiz atrofida shakllangan.

Umuman olganda, O'zbekiston moliya tizimida MHXS/IFRS tatbiqi izchil kengayib bormoqda. Bu jarayon banklar va aksiyadorlik jamiyatlarida shaffoflikni oshirish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Transformatsiya samaradorligi esa malakali kadrlar tayyorlash, axborot tizimlarini rivojlantirish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Banklar tajribasi shuni ko'rsatadiki, IFRSni tatbiq etish nafaqat moliyaviy hisobot sifatini oshiradi, balki aktivlar bahosining aniqligini va xalqaro auditorlik ishonchligini kuchaytiradi. Bu esa uzoq muddatda O'zbekiston moliya tizimini global moliyaviy makonga integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari va yirik korxonalarda MHXS/IFRSni joriy etish 2020-yildan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. 2025-yil holatiga ko'ra, respublikada jami 649 ta aksiyadorlik jamiyati faoliyat yuritmoqda (rasmiiy statistika agentligi ma'lumotlari asosida). Shu bilan birga, yirik davlat korxonalari va banklar o'rtasida IFRSni qo'llash amaliyoti kengayib bormoqda. Masalan, 2025-yilga kelib 20 ta davlat korxonasida IFRS asosida hisobot topshirish rejalashtirilgan bo'lib, bu jarayon iqtisodiy shaffoflikni yanada oshirishga xizmat qilmoqda (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonning MHXS/IFRS tatbiqi bo'yicha raqamli jadval (2025-yil)

Ko'rsatkich	Raqam / Statistika	Manba
Aksiyadorlik jamiyatlari soni	649 ta	2025yil 1iyul holatiga respublikada faol AJlar soni.
IFRS standartlari rasmiy tan olinganlar soni	60+ ta	Moliya Vazirligi tomonidan tan olingan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari.
Davlat korxonalari IFRS tatbiq qilinishi	20 ta SOE	20 yirik davlat korxonalarining IFRS bo'yicha hisobot topshirgan.
IFRS bo'yicha treninglardan o'tgan xodimlar	3 500 ta nomzodlar	9,5 mlrd so'm yo'naltirilgan buxgalteriya malaka oshirish dasturiga ro'yxatdan o'tganlar.
IFRS bo'yicha treningni tamomlaganlar	1 700 ta mutaxassislar	IFRS bo'yicha treningni yakunlagan ishtirokchilar.
Uch yillik MHXS tatbiqi	75% yirik korxonalar	Tahliliy ma'lumotga ko'ra, 2023-yilda yirik kompaniyalar orasida IFRS tatbiqi darajasi.

Manba: muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida shakllantirildi



IFRS standartlari bo'yicha normativ bazaning mustahkamlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Moliya vazirligi tomonidan 60 dan ortiq xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va ularning talqinlari rasmiy qabul qilingan bo'lib, bu standartlarni tatbiq etishning huquqiy asoslarini ta'minlaydi. IFRS tatbiqiga doir qator me'yoriy-huquqiy o'zgarishlar amalga oshirilgan. Shuningdek, "Public Interest Entities" (PIE) maqomiga ega korxonalar uchun 2026-yil 1-yanvardan boshlab majburiy tatbiq joriy etilishi belgilangan. Mazkur mexanizm subyektlar ro'yxatini yuritish orqali tatbiq samaradorligini oshirish va xalqaro auditorlik talablarini bajarishga xizmat qiladi.

Malaka oshirish jarayoni ham jadallashmoqda. 2025-yilga kelib 3 500 nafar nomzod IFRS bo'yicha malaka oshirish dasturlarida qatnashgan bo'lsa, ulardan 1 700 nafar mutaxassis IFRS bo'yicha treninglarni yakunlagan. Ushbu ko'rsatkichlar tatbiqning amaliy jihatini mustahkamlash, yetarli inson kapitalini shakllantirish va hisobot sifatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, malaka oshirish jarayoni yirik korxonalar va banklarda IFRS bo'yicha shaffoflikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Tatbiq darajasining o'sishi ham yaqqol kuzatilmoqda. Tahliliy manbalarga ko'ra, 2023-yilda yirik kompaniyalarning taxminan 75 foizi IFRSga muvofiq hisobot taqdim etgan. Bu ko'rsatkichning yildan-yilga oshib borayotgani moliyaviy hisobotlarning xalqaro me'yorlarga moslashayotganini va tatbiq jarayoni izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. IFRS asosida hisobot beruvchi korxonalar sonining ortishi investorlar ishonchini kuchaytiradi hamda moliyaviy resurslarning aniqroq baholanishini ta'minlaydi.

Transformatsiya jarayoniga yo'naltirilayotgan xarajatlar ham ortib bormoqda. Treninglar, konsalting xizmatlari va ERP tizimlarini modernizatsiya qilish uchun ajratilayotgan mablag'lar kompaniyalarning IFRS talablariga moslashishiga xizmat qilmoqda. Bu esa nafaqat normativ talablarga muvofiqlikni, balki moliyaviy hisobot sifatini ham oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, xalqaro auditorlik xulosasini olgan aksiyadorlik jamiyatlari sonining ortib borishi hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligi va global moliya bozoridagi ishonchligini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston iqtisodiyotida MHXS/IFRS tatbiqi nafaqat normativ jihatdan, balki amaliyot va malaka oshirish yo'nalishlari orqali ham izchil rivojlanmoqda. Tatbiq jarayonining jadallashuvi, malakali kadrlar bazasining kengayishi va normativ-huquqiy asoslarning mustahkamlanishi mamlakatning moliyaviy shaffoflikni oshirish hamda xalqaro investorlar ishonchini mustahkamlashga qaratilgan strategiyasini aks ettiradi. Bu esa uzoq muddatda O'zbekiston moliya tizimining xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuviga va aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari va yirik korxonalar faoliyatida Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS/IFRS)ni tatbiq etish so'nggi yillarda izchil rivojlanib bormoqda. 2025-yil holatiga ko'ra, respublikada 649 ta aksiyadorlik jamiyati faoliyat yuritmoqda va yirik davlat korxonalari hamda banklar IFRS talablariga moslashish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Normativ-huquqiy bazaning mustahkamlanishi, standartlarning rasmiy tan olinishi va malaka oshirish dasturlarining kengayishi tatbiq jarayonining sifatli tashkil etilishiga xizmat qilmoqda.

IFRS bo'yicha treninglardan o'tgan mutaxassislar sonining ortib borishi hamda yirik kompaniyalar orasida tatbiq darajasining taxminan 75 foizga yetishi moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishga va investorlar ishonchini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar natijasida malakali mutaxassislar yetishmasligi va axborot texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish zarurati asosiy yo'nalishlar sifatida aniqlandi. Ushbu omillarni kompleks hal etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- (a) MHXS bo'yicha davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan sertifikatlash dasturlarini kengaytirish;
- (b) soliq qonunchiligini MHXS talablariga yanada uyg'unlashtirish;
- (c) kichik va o'rta aksiyadorlik jamiyatlari uchun MHXSga o'tish jarayonini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish.

Tatbiq jarayonining kengayishi, xalqaro auditorlik xulosalari sonining ortishi va hisobotlarning sifat jihatdan takomillashuvi O'zbekiston moliya tizimini xalqaro moliya bozorlariga integratsiya qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tatbiq jarayoni hali to'liq yakunlanmagan bo'lib, ayrim kichik va o'rta korxonalar hamda davlat korxonalarida IFRS talablariga moslashish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy va metodik choralar zarur. Transformatsiya xarajatlari va malaka oshirishga yo'naltirilayotgan mablag'lar ortib borayotgan bo'lsa-da, ushbu jarayonni yanada samarali va tizimli tashkil etish uchun qo'shimcha mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Qiyosiy tahlil natijalari MHXS asosida tuzilgan hisobotlarda aktivlar va majburiyatlar hajmi milliy BHMSga nisbatan yanada aniqroq aks ettirilishini, sof foyda va rentabellik ko'rsatkichlari esa ehtiyotkorlik tamoyiliga mos holda baholanishini ko'rsatadi. Bu esa MHXS asosidagi moliyaviy hisobotlarning investorlar va manfaatdor tomonlar uchun ishonchli va barqaror axborot manbai ekanligini tasdiqlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduganiyeva S.A. (2025). Implementation of International Financial Reporting Standards (IFRS) in Uzbekistan. *European Journal of Business Startups and Open Society*, 5(1), 249–252.
2. Generalova N., Pyatov M., Sokolov B. (2024). The History of IFRS in Russia in 1991–2021. *Journal of International Accounting Research*, 23(3), 51–75. <https://doi.org/10.2308/JIAR-2023-042>
3. Mamadiyrov F. (2025). Opportunities and Risks for Uzbek Enterprises Transitioning to IFRS. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*. <https://cajitm.casjournal.org/index.php/CAJITMF/article/view/847>
4. Mirzayev B.T. (2023). O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida moliyaviy hisobot islohotlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent: TDIU, 120 b.
5. Nguyen H.T.T., Nguyen H.T.T., Nguyen C.V. (2023). Analysis of factors affecting the adoption of IFRS in an emerging economy. *Heliyon*, 9(6), e17331. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e17331>
6. Nobes C., Parker R. (2016). *Comparative International Accounting* (13-nashr). Pearson Education Limited, 205 b.
7. Owusu G.M.Y., Suppiah S.D.K., Saat N.A.M., Law S.H. (2022). IFRS adoption and economic growth in developing economies. *International Journal of Economics and Accounting*, 11(1), 73–98.
8. Toshmatov A.N. (2021). O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot, 87 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>